

2018 yil 9 oylik yakunlariga ko'ra Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasining asosiy faoliyat ko'satkichlari to'g'risida taxliliiy ma'lumot.


T/r	Asosiy faoliyat turi bo'yicha ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2017 y 9 oylik amalda	2018 y 9 oylik amalda	2017 yilning 9 oylikka nisbatan(%)
	Bajarilgan ish xajmi, jami	mlrd.so'm	1223,6	1908,0	155,9
	shu jumladan:				
1	Investitsiya dasturi bo'yicha	mlrd.so'm	*373,1	*534,9	143,4
		km	161,6	165,2	102,2
2	To'la ta'mirlash ishlari	mlrd.so'm	136,2	227,6	167,1
		km	134,0	137,4	102,5
3	Mintaqaviy yo'llarni ta'mirlash	mlrd.so'm	232,5	255,0	109,7
		km	2180,0	2321,0	106,5
4	Umumiy foydalanuvdagi avtomobil yo'llarini joriy ta'mirlash va saqlash ishlari	mlrd.so'm	481,7	890,5	184,9
		km	2120,0	2950,0	139,2
5	Sanoat ishlab chiqarish xajmi	mlrd.so'm	206,2	265,7	128,9
6	Yangi ishjoylarini yaratish	kishi	297	579	195,0
7	Qora metall chiqindilarini topshirish	tonna	12778,0	12815,0	100,3

* Xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobiga, xorijiy pudrat korxonalarini tomonidan bajarilgan ish hajmi bilan birga.

Qo'mita tizimidagi korxonalar va tashkilotlarda 2018 yilning 9 oy davomida Investitsiya dasturiga asosan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida **534,9 mlrd. so'mlik** qurish va rekonstruktsiya qilish ishlari amalga oshirildi. Ushbu ko'rsatkich 2017 yilning xuddi shu davriga nisbatan **143,4 foizni** tashkil etadi.

Bundan tashqari to'la ta'mirlash dasturiga asosan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida **137,4 mlrd. so'mlik** ta'mir ishlari bajarildi. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning 9 oyligiga nisbatan **167,1 foizni** tashkil qiladi.


2017-2018 yillarning 9 oylik yakunlariga ko'ra asosiy faoliyat ko'rsatkichlarining taqoslama diagrammasi



2018 yilning 9 oylik yakunlari bo'yicha Respublikamizdagi **2321 km** mintaqaviy avtomobil yo'llarini ta'mirlandi. Shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida **119,0 km**, Andijonda **248,4 km**, Buxoroda **170,2 km**, Jizzaxda **129,2 km**, Qashqadaryoda **216,7 km**, Navoiyda **155,3 km**, Namanganda **200,4 km**, Samarqandda **216,0 km**, Surxandaryoda **276,8 km**, Sirdaryoda **100,9 km** Toshkent viloyatida **154,5 km**, Farg'onada **195,8 km**, Xorazmda **101,0 km** hamda Toshkent shahrida **36,8 km** mintaqaviy avtomobil yo'llarida ta'mirlash ishlari olib borildi. Mintaqaviy ichki yo'llar ta'miri hajmi esa o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan **106,5 foizga oshgan**.

2018 yil 9 oylik yakunlariga ko'ra mintaqaviy avtomobil yo'llarini

ta'mirlash (hududlar kesimidagi diagramma)



2018 yil 9 oy davomida Respublika bo'yicha avtomobil yo'llarida **42695 km** uzunlikdagi yo'llardan **890,5 kmdan iborat qismida** joriy ta'mirlash ishlari amalga oshirilib, ularning holati yaxshilandi. Bu esa 2017 yilning 9 oyligiga qaraganda **184,9 foizni** tashkil etadi.

Qo'mita tizimidagi korxonlar tomonidan 2018 yil 9 oyligida **265,7 mlrd. so'mlik** sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Mazkur ko'rsatkich 2017 yilning 9 oyligiga nisbatan **128,9 foizni** tashkil etganligini ko'rsatadi.

Tizim korxonlari tomonidan 2018 yil 9 oyligida **579 ta** yangi ish o'rinlari yaratildi. Bu ko'rsatkich esa 2017 yilning mos ravishdagi tegishli davriga qaraganda qariyb ikki baravar ortib, **195,0 foizni** tashkil etadi.

Korxonlar tomonidan qora metall chiqindilari topshirish ko'rsatkichi 2018 yil 9 oyligida **12815 tonnani** tashkil etadi. Bu qariyb o'tgan yilgi darajada qolib, kamayishga yo'l qo'yilmagan.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasining 2018 yil 9 oyligida – umumiy bajarilgan ishlar xajmi – **1908,0 mlrd. so'mlik**dan iborat. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning 9 oyligiga nisbatan bir yarim baravardan ziyodga oshib, **155,9 foizni** tashkil etganligini ko'rsatadi.